

MUTAFAKKIRLAR VA JADID MA'RIFATPARVARLARINING TARBIYA TURLARIGA OID TA'LIMOTLARI HAMDA UNDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLAR TO'PLAMI

2025-YIL 20-21-MAY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

**“MUTAFAKKIRLAR VA JADID MA’RIFATPARVARLARINING
TARBIYA TURLARIGA OID TA’LIMOTLARI HAMDA UNDA
FOYDALANISH MEXANIZMLARI” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLAR TO‘PLAMI
2025-YIL 20-21-MAY**

**COLLECTION OF MATERIALS
OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE “THEORIES OF EDUCATION OF THINKERS AND
REFORMIST ENLIGHTENERS AND MECHANISMS FOR THEIR
USE”, MAY 20-21, 2025**

Toshkent 2025

ISSN: 2181-3337

“Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarining tarbiya turlariga oid ta’limotlari hamda undan foydalanish mexanizmlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami (2025-yil 20-21-may) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Anvar Rustamov, Farangiz Sagdullayeva, Kozim Ergashov, Jasurbek Rahmatullayev, Mansur Suyunkulov, Mahliyo Sotivoldiyeva, Maftuna Askarova, Humoyun Qodirov, Fotima Shermatova, Muxlisa Zunnunova

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, professor R.G.Safarova

Tahririyat hay’ati a’zolari:

<i>X.I.Ibraimov</i>	<i>Pedagogika fanlari doktori, O‘zFA haqiqiy a’zosi, akademik</i>
<i>R.G.Safarova</i>	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor</i>
<i>H.M.Tojiboyeva</i>	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor</i>
<i>R.M.Medetova</i>	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor</i>
<i>N. Masharipova</i>	<i>Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim</i>
<i>N.Ch.Rustamov</i>	<i>Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti, katta ilmiy xodim</i>

JADID MA'RIFATPARVARLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID QARASHLARI

Olimov Shirinboy Sharopovich¹, Samadova Sarvinoz Samad qizi²

¹BuxDU "Pedagogika" kafedrası mudiri, p.f.d.prof,

²BuxDU "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrası dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jadid ma'rifatparvarlari Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitratlarning ma'naviy – axloqiy tarbiyaga oid qarashlari o'z aksini topgan. Bola tarbiyasining asosiy yo'nalishlari, maktabda, oilada olib boriladigan axloqiy tarbiyaning jamiyat uchun katta ahamiyatga ega ekanligi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Abstract. In the following article the spiritual ethical views of the jadid enlighteners Abdullah Avloni, Mahmudhoja behbudi, Abdurauf Fitrat on upbringing. The main directions of the child's upbringing, ethical upbringing conducted in the family, school having immense significance for the society are thoroughly considered

Аннотация. В следующей статье рассматриваются духовно-этические взгляды джадидских просветителей Абдуллы Авлони, Махмудхожа Бехбуди, Абдурауфа Фитрата на воспитание. Подробно рассматриваются основные направления воспитания детей, этическое воспитание в семье и школе, имеющие огромное значение для общества.

Kalit so'z: jadid, marifatparvarlik, ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim, oila, maktab, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, "Turkiy guliston yoxud axloq", "Padarkush".

Key words: Jadid, enlightened, spirituality, spiritual ethical education, family, school, Mahmudhoja Behbudi, A. Avloni, A. Fitrat, "Turkic gulistan or moral", "Padarkush"

Ключевые слова: Джадид, просветительство, духовность, духовно-этическое воспитание, семья, школа, Махмудхожа Бехбуди, А. Авлони, А. Фитрат, "Тюркский гулистан или мораль", "Падаркуш".

Kirish. Mamlakatimiz dunyo tamadduni va ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan buyuk allomalar yurti sifatida shuhrat qozongan. Ma'naviyatimizning ildizlari bo'lgan buyuk mutafakkurlarimiz hayoti, ijodini va ular ijodidagi hozirgi yoshlarimizning ma'naviy - axloqiy tarbiyasiga ta'sir etadigan qarashlarini keng ommaga targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat tarix sahnasiga ma'rifatparvar shaxslar - jadidlarni olib chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi qomusiy bilim egalari ana shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Taniqli jadid marifatparvari, birinchi o'zbek pedagogi Abdulla Avloniyning tarbiyaga "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir"[1.38] - deb bergan ta'rifi jadidchilik faoliyatida tarbiya masalalari nechog'liq yuksak o'rin tutganidan dalolat beradi. Tarbiya masalasi bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi. Jadidchilar orasida A.Avloniy o'z faoliyati davomida tarbiya masalariga juda keng o'rin ajratadi. Avloniy o'zi yaratgan asarlarida ta'lim bilan bir qatorda tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Uning "Turkiy guliston yoxud Axloq" asari aynan tarbiya masalalariga bag'ishlangan.

Avloniy tarbiya doirasini keng ma'noda tushunadi, uni faqat axloq bilan chegaralab qo'ymaydi, balki tarbiya Vatanga sadoqat, el-yurtga hurmat kabi insoniy fazilatni ham o'zida

mujassamlashtiradi, degan g'oyani ilgari suradi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 3 yo`nalishga ajratadi:

- Badan tarbiyasi;
- Fikr tarbiyasi;
- Axloq tarbiyasi.

Tananing salomat va quvvatli bo`lishi insonga eng kerakli narsadir. Chunki o`qish, o`qitish, o`rganish va o`rgatish uchun insonga kuchli tana lozimdir [1.38] – deydi Avloniy. Bu esa, fikr tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Fikr tarbiyasi farzandni komil inson darajasiga ko'tarishda muhim omil hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga tushadi. Chunki muallim dars jarayonida o'quvchilarni fikrlashga, har qanday voqea-hodisaning mohiyatini chuqur idrok qilishga o'rgatadi. Bu o'rinda Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatining ifodasi bo'lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafiga, barkamollikka erishadi, bu o'rinda o'qituvchining fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasining har jihatdan yuksakligi o'quvchilar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi. O'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga o'rgatadi. Abdulla Avloniy asarning “Yaxshi xulqlar” bobida diyonat, islomiyat, nazofat, qanoat, shijoat, sabr, intizom, vijdon, vatanni sevmok, haqqoniyat, iffat, hifzi lison, sadoqat kabi insoniy fazilatlar haqida atroflicha fikr yuritadi, o'z qarashlarini dalillash uchun Qur'oni Karim oyatlaridan, Hadisi Sharif da'vatlaridan namunalar, ulug' mutafakkirlar Aflotun, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Mavlono Rumi, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Bedil fikrlaridan namunalar keltiradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish, fikr tarbiyasini uyushtirish juda zarur va muqaddas bir burch hisoblanadi. Shu tufayli ham ulug' allomalarimiz fikriy tarbiyaga alohida e'tibor berganlar. Avloniy ham fozilona, hikmatlarga yo'g'rilgan tasdiqlarga suyanib, fikr tarbiyasi haqida quyidagilarni aytib o'tadi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga tayangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya'ni oila muhim o'rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi o'rnak va hayotiy misol bo'lishiga farzandi guvoh bo'lishi eng ko'p samara berishi ta'kidlangan. Oilada bolaning muntazam kitob o'qishini rivojlantirish uchun ota-ona astoydil harakat qilmog'i lozim.

Farzandlar ham har xil bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham faqat fusunkor tabiatini, bog'-rog'larini hush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlari yo'q emas. Vatanni: u qanday bo'lmasin, sevish kerak. “Biz, - deydi Avloniy, - Turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issig' cho'llarini, eskimolar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”. Bobolarimiz “Qo'shni yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l, deganlar”[2.96].

Abdulla Avloniy oilada bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul degan barcha mutafakkirlarning fikriga qo'shilgan holda insonning voyaga yetishida ta'lim- tarbiyaning o'рни beqiyos ekan, bu jarayonni azaliy an'analarga tayangan holda ta'lim- tarbiyani amalga oshirish lozim deb hisoblaydi.

Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan va yetakchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy barcha maqsadlarini faqat ma'rifat orqali amalga oshirishni ko'zlaydi.

U ta' lim-tarbiya xususidagi o'z g'oyalarini amalga oshirishning bosh yo'li sifatida yangi maktablar ochish, unda yoshlarni diniy ilmlar bilan birga, aniq fanlarni ham o'qitish, Yevropacha ta' lim- tarbiyani Turkiston mamlakatlarida keng ko'lamda joriy etishni targ'ib etadi, mahalliy aholini ilm-ma'rifatga da'vat etadi. Mustamlakachilik, zulmat, jaholat va qoloqlikka qarshi kurashda u faqat ilm-ma'rifatga suyanadi, kuch-qobiliyatini maktab, maorif, diniy, tabiiy ilm va ma'rifatni rivojlantirishga qaratadi. 1911-yilda yozilgan “Padarkush” sahna asarida Behbudiy ilm, ma'rifat, maorif va umuman, xalq ta'limi va ilmiy zaminga ega bo'lgan pedagogik masalalarni keskin qo'ygan. Jumladan, asarda maktab va oilaning tarbiya sohasidagi talablari bir xil bo'lmasa, ota-onalar bolasini boshqa tomonga tortadigan bo'lsa, bola tarbiyasi tamoman izdan chiqadi degan axloqiy tushunchani ilgari suriladi. “Padarkush” asos-e'tibori bilan pedagogik qarashlarning badiiy ifodasi bo'lib, unda mustamlaka Turkistonidagi tarixiy sharoitning mahalliy aholi hayotiga, yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri masalalari ham aks etgan. Bu bizga Behbudiyning pedagogik qarashlari hamisha ijtimoiy hayotdagi eng muhim va murakkab muammolar bilan, o'z davri siyosati bilan bog'lanib ketganligini ko'rsatadi[4.53].

Jadidlarning yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat xalqni ma'rifatli qilishda ta'lim-tarbiya masalari juda muhim deb hisoblagan. Fitrat o'z asarlarida Buxorodagi barcha maktablarni keltirib o'tadi, ammo ta'lim-tarbiya berish axloqiy sifatlarni shakllantirishda hech qanday ahamiyati qolmaganini aytib o'tgan. Fitrat maktabni tarbiya o'chog'i deb hisoblagan, maktabni jamiyat hayotini rivojini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri ekanligini ta'kidlagan.

Maktab bolalarga tarbiya berib, jamiyatdagi buzuvchiliklar, o'g'irlik, razolatni yo'qotishi lozim deb biladi. Fitrat darsliklarida ko'plab hikoyalar keltiradi, bu hikoyalarda axloqiy tarbiya berishga va turli axloqiy xislatlarni singdirishga harakat qiladi. Fitrat inson shaxsini tarbiyalash uchun kurashgan mohir pedagogdir. U millatparvarlik va vatanparvarlik haqidagi qadriyatlarga tayanib, shunday ta'limot yaratdiki, bu ta'limot bugungi kunimizda vatanparvarlik mafkurasini yaratish va yoshlarni vatanni, millatni sevishtga o'rgatishda muhim qo'llanma bo'la oladi. Fitrat vatan, vatanparvarlik va insonparvarlikni eng yuksak axloqiy xislat deb bilib, kishilarni uni asrashga, unga sidqidildan xizmat qilishga chaqiradi.

Fitrat ijodiyotidagi eng muhim masalalardan biri uning islom dini g'oyalarini har taraflama chuqur o'rganib, tahlil etib, ulardan komil insonni imon-e'tiqod va insofli qilib tarbiyalashda foydalanishni targ'ib qilganligidir. Fitrat barkamol inson tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o'rni juda katta deb biladi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vazifasi insonni axloqiy barkamol, barchaga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat. U hikmat, iffat, shijoat va adolatni asosiy axloqiy sifatlari deb hisoblaydi.

Fitrat oila tarbiyasi va jamiyatda ayollarning o'rni, masalalarigaham alohida to'xtaladi. Bola tarbiyasida onaning o'rni juda kattaligini ko'rsatadi. Shu bilan birga tarbiyada oila, maktab va davlat hamkorligining zarurligini asoslaydi. Fitratning “Rahbari najot” asari to'la ravishda ta'lim va tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Ushbu asarning “Bola tarbiyasi masalalari” bobida “Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdur”, - deya ta'kidlaydi. Bundan tashqari, u bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerak ekanligini, chunki davlatning kelajagi ana shunday yoshlar qo'lida bo'lishini aytib o'tadi.

Fitrat bolalar tarbiyani o'zi yashayotga atrof-muhit va atrofidagi bolalardan olishlarini ta'kidlaydi. U ijtimoiy muhitning bola tarbiyasiga katta ta'sir o'tkazishini isbotlab beradi. Fitrat o'zining asarida: “Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi”[3.79], - deya yozadi.

Fitrat inson kamolotga yetishishi uchun doimo intilishi, harakat qilishi lozimligi, doim oldiga maqsadlar qo'yishi va unga erishish uchun kurashishi kerakligini uqtiradi.

Fitrat axloqi buzuvchi kishilarni maktabda muallimlik vazifasidagina emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmaslikni juda to'g'ri harakat deb biladi. U o'z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, ozodlik, mehnatsevarlik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr-shafqatli bo'lish, o'z manfaatidan xalq manfaatini ustun qo'yish g'oyalarini ulug'laydi.

Abdurauf Fitrat o'zining butun hayoti davomida milliy mustaqillikka erishish va mustamlakachilikka qarshi kurash, Yevropadavlatlari ilmi, texnikasi madaniyatidan o'rganish muammolarini tinimsiz targ'ib qilgan siymolardan biri sifatida barchaga, eng avvalo yoshlarga katta ibratdir.

Xulosa. Bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlar oilada axloqiy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina yuzaga chiqadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantirish uchun ota-onalar farzandlari bilan shug'ullanishlari va o'zlari ham yaxshi xulq-atvorga ega bo'lishlari shuningdek, o'z atrof-muhitlariga befarq bo'lmasliklari lozimdir.

Bugunda ma'rifarparvar jadidlarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviy ma'rifatini, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va milliy ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, yoshlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan ma'naviy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy qadriyatlari sifatida hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: "Ma'naviyat", 2009 y.
2. Abdulla Avloniy..Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019y.
3. Abdurauf Fitrat. "Oila yoki oila boshqarish tartiblari".-Toshkent:"Cho'lpon",2013y.
4. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. T.: "Yoshlar nashriyot uyi". 2022y.
5. Samadova S.S. "The significance of the Jadids' scientific heritage in developing the spirituality of yourth in New Uzbekistan" // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. Indonesia. Volum 1. Number 4.2025. p1-6.
6. Samadova S.S. "The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan"// Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1.2025. p 408-415.
7. Samadova.S.S. Jadidlarning ma'rifiy qarashlari va ta'lim tizimiga qo'shgan hissiati.// Pedagogik mahorat.2-son. 2025y.fevral. 230-233-b.

Mundarija / Contents

1.	Ibraimov X.I JADID MA'RIFATPARVARLARINING TARBIYAGA OID YONDASHUVLARI	5
2.	Prof. Temur Xo'jao'g'li JADIDLARNING QABILIYATLI TALABALARNI CHET ELLARGA TA'LIM- TARBIYA UCHUN YUBORISHLARINING SABABLARI VA AHAMIYATI: 1909- 1923	8
3.	Baxodir Baxshulloyevich Ma'murov ABDURAUF FITRAT — BUXORO XALQ SHO'ROLAR JUMHURIYATINING MAORIF NOZIRI SIFATIDA TARBIYA SOHASIGA QO'SHGAN HISSASI	13
4.	M.Quronov, Sh.Ahralov TURKISTON TARBIYA PEDAGOGIKASI: TARIXIY ESKURS	17
5.	Q.Seytmuratov SEYFULG'ABID MAJIDOVNING MA'RIFIY-JADIDCHILIK FAOLIYATI VA TA'LIM-TARVIYAVIY QARASHLARI	22
6.	Axmedov Gulmamat Nurmatovich SAMARQANDDA JADIDCHILIK HARAKATI VA MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING FAOLIYATI	27
7.	N.Sh.Erkaboyeva ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK QARASHLARINING ZAMONAVIY TALQINI	33
8.	Safarova R.G. MUTAFAKKIRLAR VA JADIDLARNING TARBIYA MODELLARI HAQIDAGI YONDASHUVLAR	36
9.	Masharipova Nasiba Ro'zmatovna MUTAFAKKIRLAR, MILLIY QAHRAMONLAR VA JADIDLARNING FIKR TARBIYASIGA OID TA'LIMOTLARI	40
10.	R.X.Djuraev JADIDCHILARNING MILLIY TA'LIM-TARBIYA BORASIDAGI ZAMONAVIY QARASHLARI	45
11.	Shukurullo Mardonov TURKISTONDA YANGI USUL MAKTEBLARINING PAYDO BO'LISHI	47
12.	Tojiboyeva X.M. MURAFAKKIRLAR VA JADIDLARNING GENDER YONDASHUVGA OID QARASHLARI	50
13.	Olimov Shirinboy Sharopovich, Samadova Sarvinov Samad qizi JADID MA'RIFATPARVARLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID QARASHLARI	54
14.	P.M.Медетова ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВЗГЛЯДОВ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ ДЖАДИДИЗМА В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ	58
15.	L.M.Qaraxonova JADIDLAR – MILLIY TA'LIM VA TARBIYANING TARG'IBOTCHISI SIFATIDA	62
16.	Atayeva Xulkaroy Murod qizi MAHBUDXO'JA BEHBUDIY MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT TARG'IBOTCHISI	64
17.	Tuychiyeva I.I, M. N. A'zamova JADID MA'RIFATPARVARLARINING OILA TARBIYASIGA OID PEDAGOGIK QARASHLARI	67
18.	Aslonov MadaminMansurovich, Mansurova Gulchehra Madamin qizi² BUXORO JADID MA'RIFATPARVARLARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQILGAN QOIDALAR (TA'LIM TO'G'RISIDAGI QONUN) MAZMUN MOHIYATI VA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI BILAN UYG'UNLASHUVI MASALASI	70

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

**“MUTAFAKKIRLAR VA JADID MA’RIFATPARVARLARINING
TARBIYA TURLARIGA OID TA’LIMOTLARI HAMDA UNDAN
FOYDALANISH MEXANIZMLARI” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLAR TO‘PLAMI
2025-YIL 20-21-MAY**

**COLLECTION OF MATERIALS
OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE “THEORIES OF EDUCATION OF THINKERS AND
REFORMIST ENLIGHTENERS AND MECHANISMS FOR THEIR
USE” MAY 20-21, 2025**

Published: 23.05.2025. Font: «Times New Roman».

LLC «Science and innovation»
License Mass Media №:1597 27.04.2022
License Publisher №:038864 15.09.2022
Address: 100121, Tashkent, Yakkasaroy, st. Sh. Rustaveli 150,
Business center “Vega”, 6th floor, Office №:2
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654